



# BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY DEFORMATSIYA

## MUAMMOSI

*Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika psixalogiya kafedrasи  
o`qituvchisi*

### **TO'LANOVA MAXLIYOXON MUROTALI QIZI**

*Andijon davlat pedagogika instituti Matematika va informatika y`onalishi 2-  
bosqich talabasi*

**ABDULATIPOV MIRJALOL ABDURAHMON O'G'LI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda kasbiy deformatsiya muammosi, uning psixologik, ijtimoiy va kasbiy jihatlari tahlil qilinadi. Deformatsyaning asosiy sabablari — haddan tashqari nazariy yuklama, emotsional zo'riqish, amaliy tayyorgarlikning yetarli emasligi va o'qituvchilik kasbining ijtimoiy maqomiga bo'lgan qarashlar orqali ochib beriladi. Shuningdek, maqolada deformatsyaning oldini olishda emotsional intellektni rivojlantirish, psixologik yordam xizmatlarini yo'lga qo'yish va o'qituvchilik shaxsiyatining barqarorligini mustahkamlash bo'yicha taklif va tavsiyalar keltiriladi. Ushbu masala bo'lajak o'qituvchilarни tayyorlash jarayonida e'tibordan chetda qolmasligi kerak bo'lgan muhim jihatlardan biridir.

**Kalit so'zlar:** pedagogika, kasbiy deformatsiya, psixologik tayyorgarlik, emotsional intellekt, refleksiya

**Аннотация:** В данной статье рассматривается проблема профессиональной деформации у будущих педагогов, а также её психологические, социальные и профессиональные аспекты. Основные причины деформации — чрезмерная теоретическая нагрузка, эмоциональное перенапряжение, недостаточная практическая подготовка и общественное восприятие профессии учителя. В статье также предложены рекомендации по профилактике профессиональной деформации, включая развитие эмоционального интеллекта, организацию психологической поддержки и



укрепление личной устойчивости педагога. Эта тема является актуальной и требует особого внимания в процессе подготовки будущих учителей.

**Ключевые слова:** педагогика, профессиональная деформация, психологическая подготовка, эмоциональный интеллект, рефлексия

**Abstract :** This article examines the problem of professional deformation among future teachers, analyzing its psychological, social, and professional dimensions. The main causes of deformation include excessive theoretical workload, emotional strain, insufficient practical training, and societal perceptions of the teaching profession. The article also offers recommendations for prevention, such as developing emotional intelligence, establishing psychological support systems, and strengthening the personal resilience of teachers. This issue is critical and should not be overlooked in the training process of future educators.

**Keywords:** pedagogy, professional deformation, psychological preparation, emotional intelligence, reflection

### Kirish

Pedagogik faoliyat inson bilan ishlashga asoslangan kasblar orasida eng mas'uliyatlisidir. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida ularda yuzaga keladigan psixologik va ijtimoiy-ruhiy holatlar, ayniqsa kasbiy deformatsiya muammosi, alohida e'tiborni talab qiladi. **Kasbiy deformatsiya** — bu shaxsning professional faoliyati davomida shakllanadigan va uning shaxsiy sifati, kommunikativ uslubi, hamda muomala madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatdir. Bu holat o'qituvchilarda stress, motivatsiyaning pasayishi, ishdan charchash (burnout), va o'z kasbidan qoniqmaslik shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Bo'lajak pedagoglar universitetda bilim olayotgan paytdayoq kasbiy deformatsiyaga olib keladigan omillar bilan to'qnash kelishadi. Bularga quyidagilar kiradi: haddan tashqari nazariy yuklama, amaliyotning yetarli emasligi, o'qituvchi obrazining idealizatsiyasi, va shaxsiy stresslarga qarshi kurashish ko'nikmalarining yo'qligi. Kasbiy deformatsiyaning oldini olish uchun pedagogik ta'lrim tizimida quyidagi choralar muhimdir: psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish, o'qituvchilarda emotsiunal intellektni rivojlantirish, refleksiya madaniyatini shakllantirish, va kasbiy maslahat (superviziya) xizmatlarini



yo‘lga qo‘yish. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak pedagoglarning ruhiy holati va kasbiy barqarorligi — ta’lim sifati uchun muhim omil hisoblanadi. Kasbiy deformatsiyaga qarshi kurashish esa faqatgina individual emas, tizimli yondashuvni talab qiladi.

### **Asosiy qism**

Ta’lim jarayonining asosiy markaziy omillaridan biri sifatida pedagog shaxsi shakllanishi muammosi xozirgi zamon psixologiya fanining dolzARB mavzularidan biridir. Zero ta’limning sifati va samarasi pedagogik jarayonda faoliyat yuritayotgan kadrlarning har tomonlama tayyorgarligiga va kasbiy deformatsiyasiga bog‘liqdir. Pedagog-tarbiyachi ishida tayyorgarlikni shakllantirish uning turli tarkibiy qismlari qarama-qarshi yo‘nalishlarga ega bo‘lishi bilan murakkablashadi. Demak, intellektuallik ham tayyorgarlikning tarkibiy qismidir, chunki u vazifalar va masuliyatlarni tushunadi, shuningdek faoliyatning asosiy tarkibiy qismi - o‘qitilayotgan mavzuni bilish va uning muammolarini tushunishdir. Hissiylik - hozirgi paytda kayfiyat, va hissiylik kommunikativ madaniyat sifatidir. Tayyorgarlikning ushbu ikki tarkibiy qismi o‘rtasida kelishmovchilik munosabatlari rivojlanishi mumkin. Binobarin, tarbiyachi kun davomida bir necha bor tayyorlik holatini shakllantirishi, uning barcha tarkibiy qismlarini uyg‘unlashtirishi kerak. Shunday qilib, pedagogning stressga chidamliligi kasbiy faoliyat samaradorligi va ishonchliligin ta’minalashning eng muhim omilidir. Deformatsiya tushunchasi, odatda, organizmga ta’sir etuvchi va unda muhim xarakter xususiyatini hosil qiluvchi o‘zgarish sifatida talqin qilinadi. Ko‘pgina tadqiqotchilar “InsonInson” tipidagi kasblarda kasbiy deformatsiyaning paydo bo‘lishi va shakllanishini ta’kidlaydilar. Insonning muayyan mehnat muhitiga moslashuvi uning kundalik muomalasida, mehnat faoliyatining aniq ko‘rsatkichlarida, mehnat samaradorligida, ijtimoiy axborot va uning amalda ro‘yobga chiqarilishida, faollikda namoyon bo‘ladi. Mehnatga moslashish birlamchi bo‘lishi (xodimning mehnat muhitiga kirishida) va ikkilamchi (kasbni almashtirgan va almashtirmagan holda ish o‘rnini almashtirishida yoki muhitning jiddiy ravishda o‘zgarishida) bo‘lishi mumkin. Kasbiy moslashuv - shaxsning kasbiy ko‘nikmalar va malakalarni muayyan darajada egallahisha, unda ayrim kasbiy jihatdan zarur hislatlarning shakllanishida, xodimning o‘z kasbiga nisbatan barqaror ijobjiy



munosabatda bo‘lishining rivojlanishida ifodalanadi. Didaktik diagnostika - pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun xizmat qilishdir (o‘quv jarayonining tashkiliy metodik tomonlaridan tashqari). Shaxslarning og‘zaki va yozma javoblarini, javoblardagi tipik xatolarni, ularning sabablarini, o‘quv faoliyatidagi salbiy o‘zgarishlarni, shaxslarda o‘quv mehnat malaka va ko‘nikmalarning rivojlanganlik darajasini, ta’lim olishga nisbatan moyilliklari diagnostika qilinadi. Ijtimoiy-pedagogik diagnostika - shaxslarning pedagogik qarovsizligi, moslashganlik darjasи, tarbiyasi og‘ir bolalarni diagnostika qilishda ijtimoiy omillarni hisobga oluvchi yo‘nalishdir. Psixodiagnostik faoliyat jarayonini metodikalar aprobatsiyasi, talablar yo‘riqnomasini ishlab chiqish, tadqiqotlarni o‘tkazishdagi qonun-qoidalarni yaratish, natijalar tahlilining usullarini shakllantirish hamda ma’lum metodlarning imkoniyat va cheklanishlarini muhokama qilish tashkil etadi. Diagnostik faoliyat o‘z maqsadiga ko‘ra tashhis (diagnoz) yo‘nalishining turli ko‘rinishlariga ega bo‘ladi.

### **Adabiyotlar tahlili va Metodologiya**

Qo‘yilgan tashhis o‘rganilayotgan xususiyatlarni\_shakllantirishga\_yoki korreksion ishlarni tashkil etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan ifodalanadi. Shunday qilib, diagnostika yorqin namoyon bo‘luvchi individual-psixologik, psixofiziologik xususiyatlar asosida olingan ma’lumotlarni taqqoslash bilan alohida kishi yoki ma’lum shaxslar guruhi borasida xulosa chiqarish demakdir. Bolalar bog‘chasidagi bolalarning qobiliyat va layoqatlarini\_har\_tamonlama rivojlanirishga, ular shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Psixodiagnostika psixologik diagnoz qo‘yish haqidagi fandir. Bunda diagnoz ko‘rsatkich va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holati va xususiyalari haqidagi xulosalaridan iboratdir. Psixologik diagnoz (diagnosis - grekcha, aniqlash, bilish degan ma’noni anglatadi) - shaxs individual- psixologik xususiyatlarining hozirgi holatiga baho berish, rivojlanishini oldindan aytib berish (prognoz qilish) va psixodiagnostik tekshiruv vazifalaridan kelib chiqib, tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatining so‘nggi natijasidir. Psixodiagnostik tadqiqotlar amaliyotida psixologik diagnoz qo‘yishning 3 bosqichi farqlanadi: Simptomatik diagnozda dasturi mavjud har qanday EHM\_bajarishi\_mumkin\_bo‘lgan\_tadqiqotda olingan natijalar qayta ishlanadi. 2.



Etnologik diagozda (kelib chiqish sabablari) biror xususiyatning mavjudligini\_emas,\_balki uning vujudga kelish sabablari ham hisobga olinadi. 3. Tipologik diagozda sinaluvchi shaxs tuzilishida olingan natijalarning ahamiyati va\_o'rni aniqlanadi. Psixodiagnostika psixologiyaning ilmiy va amaliy jahbalaridan tashqari uning boshqa sohalarida\_keng\_qamrovda\_qo'llaniladi. Diagnostik faoliyatning maqsadi o'qituvchiga pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va baholash mezonlarini belgilashga, muammolarni oson hal qilish yo'llarini aniqlashga, o'quvchilarning faoliyatini boshqarishga va o'zining kasbiy faoliyatini tuzatishga, pedagogik o'zaro ta'sir samaradorligini baholashga imkon beruvchi yaxlit axborotni\_aniqlashdan\_iborat. Tuzatish va psixologik diagnostika birligi printsipi psixologik amaliyotning alohida turi sifatida psixologik F.V.Dubrovin, D.B.Elkonin va boshqalarning asarlarida batafsil ko'rilgan bu tamoyil barcha korreksiya faoliyatining asosi sifatida tan olingan, chunki tuzatish faoliyatining samaradorligi 90% ilgari amalga oshirilgan psixologik diagnostika jarayonining chuqurligi va jiddiyligiga bog'liq. Belgilangan tamoyil ikki yo'nalishda amalga oshiriladi. A vvalo, axloq tuzatish ishlarini amalga oshirishdan oldin, o'ziga xos psixologik diagnostika tadqiqotlarini o'tkazish kerak, buning asosida birlamchi xulosa chiqariladi va korreksion-rivojlanish ishining maqsad va vazifalari aniqlanadi. Samarali tuzatish ishlarini faqat batafsil psixologik o'rganish asosida qurish mumkin. Shunday qilib, korreksiya samaradorligi dinamikasini nazorat qilish, o'z navbatida, tuzatish ishlari jarayonida ishtirok etuvchi psixologga kerakli ma'lumotlarni va o'z-o'ziga ishonishni ta'minlaydigan diagnostika tartib-qoidalarini amalga oshirishni talab qiladi. Ijtimoiy amaliyotning turli sohalari va psixologlar tayyorlash jarayonini psixokorreksiya ishlarisiz amalga oshirish mumkin emas. Shu sababli, bu ukuv kullanni tayyorlash zarurati paydo bo'ldi. Ushbu qo'llanmada psixokorreksiyaning asosiy nazariy va amaliy masalalari tizimli ravishda tavsiflanadi. O'quv jarayonida kasbiy deformatsiyadan foydalanishdan asosiy maqsad psixologik yordam turini o'rganayotgan shaxslarning o'z xohish-istiklariga ko'ra o'z kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan ushbu psixologik yordamning har tomonlama tasavvurini va nazariyuslubiy bazasini shakllantirishdan iborat. Amaliy psixolog o'zining kasbiy



salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishi uchun u o‘zining shaxsiy resurslarini to‘ldirishi, psixokorreksiya ishlari bo‘yicha qarashlarini chuqurlashtirishi va kengaytira olishi kerak. Psixologlar, ijtimoiy ishchilar va barcha psixologik yordamchilarga taklif qilinadigan ushbu tadqiqot turli amaliy vazifalarni hal qilishga yordam beradigan psixokorreksiya asoslari bo‘yicha bilim berishga qaratilgan. Ushbu tadqiqot ushbu talabalarga psixokorreksiyaning asosiy nazariy va uslubiy tamoyillarini o‘zlashtirishga imkon beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullaeva, N. (2020). *Pedagogik psixologiya asoslari*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Karimova, Z. (2021). *Kasbiy stress va pedagogik faoliyatdagi psixologik muammolar*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Xolmurodova, G. (2019). “O‘qituvchilarda kasbiy deformatsiyaning oldini olish omillari”. *Pedagogik ta’lim muammolari jurnali*, №4, 35–40.
4. Юнусова, Д.Ж. (2021). “Профессиональная деформация у молодых педагогов: причины и профилактика”. *Психология и образование*, №2, 56–60.
5. Maslach, C., & Leiter, M.P. (2016). *The Truth About Burnout: How Organizations Cause Personal Stress and What to Do About It*. San Francisco: Jossey-Bass.
6. Day, C., & Gu, Q. (2010). *The New Lives of Teachers*. New York: Routledge.
7. OECD (2020). *Teachers and School Leaders as Valued Professionals: TALIS 2018 Results (Volume II)*. OECD Publishing.